

**Xalqaro Nordik universitetida “Adabiy kecha” va “She’riy mushoira” nomli  
tadbirlar yuzasida**

**MA’LUMOTN0MA**

Adabiyotdan kuch olamiz!

"Navoiy", "Qutlug‘ qon", "Quyosh qoraymas", "Oltin vodiyidan shabadalar", "Bolalik". Bu asarlar nomi va muallifi sizga tanish. Ayrimlari ko‘ngil mulkiga aylangan.

"Nafis chayqaladi bir tup na’matak,

Yuksakda, shamolning belanchagida..."

Nordik talabalariga bu misralar ham tanish. Bugun "Ma’rifat ulashib" tadbirida jo‘rlikda o‘qildi.

Xalqaro Nordik universiteti talabalarini bilan adiblar xiyobonida adabiyot kechasi tashkillashtirildi. Tadbirga Yozuvchilar uyishmasi a’zosi Shoyim Bo’tavey taklif qilindi. Adabiyot yuzasidan turli ma’lumot va fikrlarini aytib o‘tishdi. Tadbir yakunida faol talabalarimizga “O’tashan yettinchi tong” nomli asarini yozuvchi dasxatlari bilan talabalarga sovg‘a qilishdi.











Nordik ustozlari va talabalari o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining 35 yilligi arafasida Adiblar xiyobonida "Ma'rifat ulashib" tadbirini o'tkazdilar.

Ulug' adib, shoir, olim, jamoat arbobi Oybek haykali poyiga gul qo'yildi.

Universitet rektori, professor Sherzod Mustafakulov va dotsent, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Sitorabonu Shomurodova Oybek xususida ko'plab yangi ma'lumotlar taqdim etdilar.

*Anjuman mehmoni - O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Do'stlik" va "Mehnat shuhrati" ordenlari sohibi, iste'dodli noshir Shoyim Bo'tayev talaba-yoshlarni adabiyot, ilm bilan "zirhlanish"ga undadi.*

Viktorinada faol qatnashgan yoshlar, adabiyot jonkuyari bo'lgan universitet rahbariyatiga Shoyim Bo'tayev, ya'ni muallif dastxati bilan yangi o'zbek romani - "**Utashan. Yettinchi tong**" kitobi sovg'a qilindi.

Anjumanda adabiyotdan kuch olindi, "Nordik taronasi" ansamblining jonli ijrolari tinglandi. Yangi talabalar "Zakovat"chilar safiga qo'shildilar.